- **Шрифт (Display font)** sohasivaqt ko'rsatkichida kichik (**Small font- Мелкий**) yoki katta (**Large font- Крупный**) shriftni tanlash imkonini beradi.

Мавзу 5: Масофавий таълим.

Масофадан ўқитишга қизиқиш шаклланганлигига узоқ йиллар гувоҳлик беради. Таълимнинг бу шаклига сиртдан билим олишга ўтган асрлардаёқ, пойдевор қўйилган. Ҳозирги даврга келиб, телекоммуникатив технологиялар воситасида масофадан ўқитишнинг кескин суръатларда ривожланиши сиртки таълимнинг бир шакли сифатида алоҳида эътиборга моликдир.

Жаҳоннинг етук ўқитувчи-педагогларининг телекоммуникациялар ва интернетнинг оламшумул тармоқларидан умидлари катта. Бу умидларнинг амалга ошиши мумкинми? Педагоглар техника воситалари ва янги ахборот технологиялари салоҳиятидан тўла фойдалана оладиларми? Масофадан ўқитиш курслари таълим тизимининг тўлақонли, ишончли бир бўлаги бўла оладими?

Бу ва шу каби саволлар бугунги кунда таълим тизими ва биз педагоглар олдида турган долзарб масалалардандир. Масофадан ўқитиш методлари шаклланаётган ва ривожланаётган ҳозирги босқични бу соҳа бўйича тажриба тўплаш даври деб номлаш мумкин.

Масофадан ўқитиш курсларини ташкил этган ва турли соҳалар бўйича таълим беришни йўлга қўйган педагоглар жамоаси бу курсларда машғулотлар олиб бориш бўйича тажриба орттирмақдалар. Таълимни янада самаралироқ йўлларини изламоқдалар. Педагогларнинг бу йўналиш бўйича изланишлари масофадан ўқитишни янгидан ташкил этувчи турли соҳа мутахассислари учун фойдали бўлиши ва келажақда яхши самара бериши мумкин.

Маълумки, масофадан ўқитиш очик таълим жараёнига асосланган бўлиб (машғулот жойининг, вақти ва таълим шаклининг эркинлигининг таълимланганлиги), компьютер воситасида таълим дастурлари, замонавий ахборот технологияларининг қўлланилиши ва юқори малакали мутахассислар тайёрлашни талаб даражасида малака оширишнинг ташкил этилиши педагоглардан юксак даражада билим ва маҳоротни талаб этади.

Шу сабабли ҳам масофадан ўқитиш методикасининг истиқболи замонавий ахборот ва телекоммуникатив технологиялар ва илмий-техникавий ҳамда ўқув-методик ахборотларни таълим жараёнида қўлланилишига бевосита боғлиқдир. Улар масофадан ўқитиш методларининг кенгайиши, аҳолининг маълум қисми учун таълимнинг сифатли ҳолда етказилиши даражасининг ўсиши, ҳаракатлари чегараланган инсонларга таълим бериш, кундузги таълим тизимидан фойдалана олмайдиган шахслар учун қулай таълим тизими яратишга мўлжалланмоғи лозим.

Масофадан ўқитишни амалга ошириш учун аниқ танланган ва ўзаро таъсирда бўлган, бир-бирига мувофиқ қуйидаги уч омиллар бўлиши зарур:

1. Ўқув ва методик адабиётлар
2. Назарий тизим
3. Ташкилий шакллар

Масофадан ўқитиш тизими анъанавий таълим тизими шаклларига нисбатан ўқув курсларининг қулайлигини, доимий равишда таълим сифатини кўтариб борилиши, масофадан ўқитиш методларининг қўлланилиш соҳаларининг кенгайиши, мустақил таълим ҳажмининг катталиги, ўқув-методик таъминот шакллариининг турли-туманлиги масофадан ўқитиш жараёнининг самарадорлигини кескин суръатда ошириб, таълим олувчининг қайси жойдалигидан қатъий назар катта аҳамиятга молик бўлади. Бошқа томондан масофадан ўқитиш тизимининг қулайлиги туфайли ўқув, аудитория, ўқув-методик қўлланма ва электрон кутубхоналардан фойдаланиш, замонавий ҳисоблаш техникаси, глобал ва локал компьютер тармоқларини қўллаш тьюнерни тайёрлаш, маъмурий бўлинмаларнинг ходимларини тайёрлаш ва молиявий таъминот каби муаммолар ҳам ўз ечимини топди.

Масофадан ўқитиш тизимидан фойдаланишида ўтган йилларда орттирилган жаҳон тажрибаси маълумотларини таққослаш, таҳлил этиш воситасида масофадан ўқитиш методларининг алоҳида аҳамият-жиҳатларини ажратиб олишга имкон яратиб, қуйидаги таълим методлари белгилаб берилди:

- фундаментал таълимнинг сифатини кўтариш;

- ахборот ва телекоммуникатив технологияларни қўлланиб амалга ошириладиган оммавий таълим методларининг ўсиши;
- инсонларда ижодий тафаккурнинг ривожланиши ва шахсларнинг шаклланиши;
- оламнинг яхлит манзарасини шаклланишида фундаментал табиат қонунларини ва ижтимоий қонунларни ўрганиш.

Инсоннинг ўз-ўзини англаб боришида таълим тизими ислохотлари ва унда ҳақиқатдан ҳам ўқув жараёни марказий ўринни эгаллаши каби масалалардир. Бунда таълим олувчидан мустақиллик, ташкилотчилик ҳамда масъулиятлилик талаб этилади.

Университетдаги анъанавий таълимда талаба унга ўқитувчи берган топшириқларнигина бажаради (масалан, янги мавзунини тинглайди, уй вазифаларини бажаради). Бундай таълим жараёнида ўқитувчининг ўзи фаол булади. У машғулотнинг қандай олиб борилиши, ўқув матереали ва топшириқларни, саволларни тайёрлайди талабаларнинг мураккаб вазиятдан чиқиб кетишига йўлланма беради. Дарс жараёнида қулай муҳит яратишга ҳаракат қилади.

Масофадан ўқитиш анъанавий таълим тизимини ҳар қандай инсонни ўқита олиши, ҳар қандай вазиятларда ва унинг ўзи истаган вақтда мулоқот бўлиши жиҳати билан ҳам янада тўлдиради. Масофадан ўқитиш тизимининг тараққиёти қуйидагиларга боғлиқ:

қулай шароит - таълимнинг мунтазамлиги, энг замонавий ўқув воситаларидан фойдаланиши, таълимнинг кутилаётган даражасига интилиши.

модуллик - ҳар бир алоҳида фаннинг, турли ўқув дастурлари асосида шаклланишидан қатъий назар умумий яхлитликнинг ташкил этилиши. Бу ўқувчиларнинг таълимий эҳтиёжларини индивидуал еки гуруҳий равишда ёндошган ҳолда амалга оширишни таъминлайди.

Масофадан ўқитишда ўқитувчи педагогнинг янги, муҳим вазифалари бўлиб, талабанинг мустақил таълим олишида илмий-методик ёрдам кўрсатиш, шахсий ўқитувчи-маслаҳатчи ролини бажариши ҳисобланади. Жаҳон тажрибасининг бу соҳадаги таҳлили масофадан ўқитиш тизимининг иқтисодий самарадорлиги анъанавий таълим шаклидан 50 фоиз юқори эканлигини кўрсатмоқда.

Масофадан ўқитиш турларига:

1. Ўқитувчи ёки талаба бирор сабаб билан (касаллик) имтиҳонга кела олмаган тақдирда экстернат таълим кўринишида;
2. Университет таълими (бирон университет базасида таълим олиш).
3. Бир неча университетлар билан ҳамкорлик қилиш;
4. Мультимедияли курслар ишлаб чиқаришга йўналтирилган таълим муассасаларида масофадан автоном таълимий ташкилотлар;
5. Автоном таълимий муассасаларнинг телевидение ва радио билан алоқадорликда ишлаш;
6. Мультимедия дастурлари асосида масофадан ўқувчи катта ешдаги шахсларга мўлжалланган таълим шакли. Масалан, ўз вақтида маълум сабаб билан ўқишни тугата олмаганлар учун. Хулоса қилиб айтганда, масофадан ўқитиш тизимининг тараққий этиши жаҳондаги барча инсонлар учун катта аҳамиятга моликдир.

Мавзу 6: Таржимон программалар.


Web-saytning resurslaridan foydalanib, masofadan mashg'ulotlar o'tish quyidagi to'rt xil usulning birida olib boriladi:

1. [Power Point namoyish etish redaktori bilan Microsoft NetMeeting dasturlari vositasida;](#)
2. [Power Point namoyish etish redaktori yordamida;](#)
3. [Tayyor elektron qo'llanmalardan foydalanib Intranetda dars o'tish;](#)
4. [Internet tarmog'i orqali dars o'tish.](#)

^ **Birinchi usul** [Internet/Intranetga asoslangan mashg'ulot\(amaliy faoliyat\)lar o'tkazish texnologiyasi](#) asosida amalga oshiriladi.

^ **Ikkinchi usul-** Microsoft Power Point redaktoridan foydalanib masofadan turib ma'ruzalar o'tishda quyidagi amallar bajariladi:

- masofadan ma'ruzaga qatnashuvchi kompyuterlar ishga tushiriladi;
- kompyuterlar orasidan yetakchi (bosh) kompyuter tanlanadi. Bu kompyuterda Microsoft Power Point redaktori ishga tushirilib, unda masofadan uzatilishi kerak bo'lgan elektron qo'llanma ochiladi;
- qolgan kompyuterlarda ham Microsoft Power Point redaktori ishga tushiriladi;
- bosh kompyuterda o'qituvchi yoki operator tomonidan quyidagi amallar bajariladi:
- "Сервис" menyusidan "конференция" komandasi ishga tushiriladi, natijada "Мастер конференции" nomli muloqot darchasi ekranda namoyon bo'ladi. Bu muloqot darchasida boshqa kompyuterlar bilan ulanish uchun 6 xil turdagi (начало, докладчик или слушатель, вид связи, информация о связи, детали связи, готово) bosqichlar mavjud bo'lib o'qituvchi yoki operator tomonidan shu bosqichlar bajariladi. "Мастер конференции" nomli muloqot darchasining ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.
- Muloqot darchasidagi "Начало" bo'limidan "Далее" tugmasi bosilib, keyingi "Докладчик или слушатель" bosqichiga o'tiladi.
- bu bo'limdan "Докладчик" komandasi tanlanib, "Далее" tugmasi bosiladi. Natijada "Вид связи" muhitiga o'tiladi;



1-rasm

- "Вид связи" muhitidan "Далее" tugmasi yordamida "Информация о связи" muhitiga o'tiladi.

- "Далее" tugmasi yordamida "Детали связи" muhitiga o'tiladi. Bu muhitdagi "Имя компьютера или IP адрес" nomli darchaga masofaviy ma'ruzada ishtirok etmoqchi bo'lgan kompyuterlarning nomlari (masalan: Akademiya, Master, ...) yoki kompyuterlarning IP adreslari (Masalan 120.0.0.200 xuddi Net Meetingniki kabi. ...) kiritiladi. Bu yerda kiritilgan ro'yxatlar(kompyuterlar yoki IP adreslar)ni saqlab qo'yish ham mumkin. Buning uchun "Сохранить список" tugmasidan foydalaniladi.
- "Детали связи" muhitidan "Далее" tugmasi yordamida oxirgi "Готово" holatiga o'tiladi va ro'yxatga kiritilgan kompyuterlar bilan aloqaga o'tish uchun "Готово" tugmasi bosiladi.


Bosh kompyuterda oxirgi bosqichni amalga oshirishdan oldin, bosh kompyuter bilan aloqaga o'tish kerak bo'lgan barcha kompyuterlarda "Power Point" dasturi ishga tushirilib, ularda quyidagi bosqichlar bajarilgan bo'lishi shart. (bu amallar o'qituvchi yoki operator tomonidan amalga oshiriladi).

- "Сервис" menyusidan "Конференция" komandasi ishga tushiriladi, natijada "Мастер конференции" nomli muloqot darchasi ekranda nomoyon bo'ladi. Bu muloqot darchasidagi "Далее" tugmasi bosilib, keyingi "Докладчик или слушатель" bosqichga o'tiladi;
- bu bo'limdan "Участник конференции" komandasi tanlanib "Далее" tugmasi bosiladi, natijada "Способ подключения" muhitiga o'tiladi;
- "Способ подключения" muhitidagi "Локальная или корпоративная сеть" va "связь по Интернет" bo'limlaridan "Локальная или корпоративная сеть" bo'limi tanlanib, "Далее" tugmasi faollashtiriladi va natijada "Детали связи" muhitiga o'tiladi;
- "Детали связи" muhitidan "Далее" tugmasi yordamida "Готово" muhitiga o'tiladi va bu kompyuterlar bosh kompyuter bilan aloqaga o'tishlari uchun har bir kompyuterda "Готово" tugmasi bosiladi.

Har bir kompyuterda yuqoridagi bosqichlar bajarilgandan so'ng bosh kompyuterdan ham "Готово" tugmasi bosiladi va ma'lum vaqt o'tgach kompyuterlar orasida aloqa o'rnatiladi.

Aloqa to'liq o'rnatilgandan so'ng bosh kompyuter ekranida ma'ruzani namoyish etish uchun qurolu-vositalar paydo bo'ladi. Bu vaqtda qurolu-vositalarning ekrandagi joylashishi 2-rasmdagi ko'rinishga ega bo'ladi. Bu qurolu-vositalardan foydalanib ma'ruzachi masofadan ta'lim berish vaqtida ma'ruzaga o'zgartirishlar kiritib, ma'ruzani tushuntirishi yoki xohlagan slaydga o'tishi va shunga o'xshash amallarni ma'ruza davomida amalga oshirishi mumkin.

Bosh kompyuter ekranidagi ma'ruza va undagi bo'layotgan tushuntirishlar u bilan aloqada bo'lgan barcha kompyuter ekranlarida namoyon bo'ladi. Masofadan o'tilgan ma'ruzada qatnashuvchilar bosh kompyuterdagi ma'ruzachi tomonidan namoyish etilayotgan ma'ruzani o'z kompyuterlari ekranida ko'rib, ma'ruzani oxirigacha kuzatib boradilar.



2-rasm

Ma'ruza ishtirokchilari o'z kompyuterlaridan turib ekrandagi ma'ruzani o'zgartira olmaydilar, buning uchun ularga ruxsat etilmaydi. Masofaviy ta'limni olib borayotgan ma'ruzachi masofadan dars o'tayotgan vaqtda boshqa ishtirokchilarga nisbatan yoki ma'ruza davomida o'zining tanbeh(zamechaniya)larini maxsus muloqot darchasiga yozib borishi mumkin. Masofaviy ma'ruza so'ngida Power Point dasturi, o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan tanbehlarni xohlagan redaktor(masalan, Microsoft Word matn redaktori)ga o'tkazib, hujjat ko'rinishida tayyorlab beradi. Masofaviy ma'ruza oxirida bosh kompyuterdan turib "Zavershit" komandasi yordamida ma'ruza yakunlanadi, ya'ni qolgan kompyuterlar bilan aloqa uziladi. Lekin masofadan uzatilgan ma'ruzaning nusxasi har bir masofaviy ma'ruzada ishtirok etgan ishtirokchining kompyuteri ekranida qoldiriladi. Bu ma'ruza nusxasini har bir ishtirokchi o'z kompyuteriga saqlab qo'yishi va keyinchalik undan o'z mashg'ulotlarida muntazam ravishda foydalanib borishlari mumkin bo'ladi.

^ Uchinchi usul-tayyor elektron darslikdan foydalanib Intranet sinfida ma'ruzalar o'tish.

Intranet sinfida ma'ruzalarni to'g'ridan-to'g'ri o'tish uchun Intranetning Web-tugunida maxsus elektron darslik (yoki qo'llanma)lar tayyorlab o'rnatib qo'yilgan bo'lishi lozim. Bunday elektron darslik o'zining mazmundorligi, sifati, dizayni va Web texnologiyasi asosida ishlab chiqilganligi, hamda foydalanuvchi uchun juda qulayligi bilan an'anaviy darslik va qo'llanmalardan ajralib turadi. Undan foydalanish uchun hech qanaqa qo'shimcha dasturni ishga tushirish talab qilinmaydi, to'g'ridan-to'g'ri elektron darslik yo qo'llanmaning o'zi ishga tushiriladi. Ular bilan

ishlash uchun asosan gipermatn texnologiyasidan va ekranning yuqori qismida joylashtirilgan menyulardan foydalaniladi.

Bunday elektron darslik sifatida Internet, intranet va axborot himoyasi darsligi ishlatilishi mumkin.


Ma'ruza xonasidagi kompyuterga video proyektor o'rnatilib, shu video proyektor orqali elektron qo'llanma katta ekranda namoyish etiladi. Agar ma'ruzani masofadan turib uzatish talab qilinsa yuqoridagi birinchi yoki ikkinchi usullardan foydalaniladi.

^ To'rtinchi usul. Ma'ruzalarni Internet tarmog'i orqali o'tish.

Elektron darslik yo qo'llanma asosida Internetga ulangan sinfda dars o'tish Intranet tarkibidagi kompyuter sinfida dars o'tishdan shu bilan farq qiladi-ki, bu usulda elektron darslik web-saytdan to'g'ridan-to'g'ri yoki tarmoqdagi biror serverga yozib olib foydalaniladi. Internet, intranet va axborot himoyasi elektron darsligidan foydalanish uchun quyidagi manzilga murojaat qilish kifoya <http://elamak.freenet.uz/>. Tinglovchilar mavzularni xohlagan rejimda ko'rib o'qishlari, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri Intranetdan turib maxsus giper bog'lanishli tugmalar yordamida grafik ko'rinish(rejimi)ga yoki matn ko'rinishiga aylantirib o'qishlari mumkin. 3.a-rasmda mavzulardan birining grafik ko'rinishi, hamda 3,b-rasmda matn ko'rinishga o'tkazilgan vaqtdagi ko'rinishlaridan bir namuna keltirilgan.




3, a -rasm.



3,b- rasm

Agar Internet sinfida ma'ruza o'tish zarurati paydo bo'lsa ma'ruzachi Internet Explorer dasturida turib, bu qo'llanmalarni to'g'ridan-to'g'ri namoyish etish rejimiga o'tkazib, tinglovchilarga xuddi Power Point redaktoridagi kabi ketma-ket namoyish etishi ham mumkin 4-rasm.



4- rasm

Ekrandagi elektron qo'llanmaning "Indeks" nomli sahifasiga o'tib bu sahifadan "dasturning asl nusxasini olish" muhitiga o'tiladi natijada ekrandagi elektron qo'llanmani ekranda ketma-ket namoyish etish mumkin bo'ladi. Buning uchun kompyuterda Power Point Animation Player dasturi yoki Power Point-98 namoyish etish redaktori o'rnatilgan bo'lishi shart. Agar bu dasturlar o'rnatilmagan bo'lsa unda bu (Poluchit original prezentatsii) tugmacha elektron qo'llanmani kompyuterga to'liq yozib olish imkonini beradi. Web-sahifaning qulayligi shundan iboratki, bu sahifa foydalanuvchiga Power Point Animation Player dasturini Internet tarmog'i orqali olish imkonini ham

Мавзу 7: Компьютер хавфсизлиги. Маълумотларни химоялаш.

Режа.

1. Электрон почталарда хавфсизлик чоралари.
2. Интернетда хавфсизлик чоралари.
3. Ахборотларни Интернет орқали узатиш.
4. Маълумотларни химоялаш.

Электрон почталарни антивирус текширувидан ўтказиш.

Олдинги даврларда файллар алмашиши дискеталар ёрдамида бажарилиши оқибатида компьютер вируслари тарқалиши осонлик билан амалга оширилар эди. Лекин hozirги кунга келиб алоқа каналлари орқали хар куни миллионлаб хабарлар электрон почталарда амалга оширилмоқда. Бу эса ўз навбатида вирусларни тарқатиш ва тарқалишига замин яратиб бермоқда. Афсуски архивланган файллар, электрон хабарлар орқали компьютерлар соғлигига хавф-хатар туғдирмоқда. Архивланган файлларнинг хатарлиги қандай? Бундай файллар билан вирусли ёки троян дастурлари, MS Office *.doc, *.xls форматидаги хужжатларда вирус билан зарарланган файллар фойдаланувчилар жўнатилиши мумкин. Олинган дастурларни ишга тушириш ёки хужжатларни кўриш учун очиш орқали фойдаланувчи ўз компютерига вирус юктириши, троян дастурини ўрнатиши мумкин. Ундан ташқари кўп фойдаланувчилар электрон почта дастурларини нотўғри созлаши, олинган архив файллар автоматик очилишига йўл қўйиш оқибатида ҳам кўнгилсизликлар юз беради. Бундай холларда хавфсизлик чоралари кўрилмаса вируслар ёки компьютерга хавф солувчи дастурлар компютерингизга бемалол ўрнашиб олиши мумкин. Компютерни созлаш учун фойдаланувчидан бирмунча эътибор, вақт, кунт талаб этилади.

Электрон почта ва бошқа турдаги уринишлар орқали компютерни ишғол қилиш имкониятлари кенг қўлланилмоқда. Масалан, Троян элемент бошқаруви ActiveX тузилмасидан иборат HTML кўринишидаги хужжат хабари жўнатилиши мумкин. Бундай хабарни очиш орқали фойдаланувчи ўз компютерига бу троян элементини ишга тушириб олади, бундан сўнг эса тезкорлик билан у ўз ишларини бошлайди.

Почтада тарқалаётган вируслардан химоялаш.

Компютер вируслари ва бошқа хавфли дастурларга қарши кураш учун махсус антивирус дастурий таъминотни қўллаш зарурдир.

Почталарда тарқатилаётган вируслардан химояланиш учун жўнатувчи ва қабул қилувчи компютерига антивирус дастурларини ўрнатиши мумкин. Бироқ айрим холларда компютерларни бундай усулда химоялаш етарли эмас. Одатда антивируслар файлларни текширишни эътиборга олинган бўлиб, электрон почтадаги маълумотлар оқимини текшириш қобилиятига эга эмас. Агар антивирус барча очиқ файлларни автоматик текширувдан ўтказа олмаса троян дастури ёки вирус компютер химоясини буза олиши ва дискни зарарлаши мумкин.

Ундан ташқари самарали антивируслар қоидаларга ва параметрларга қатий риоя қилади: антивирус базасини даврий янгилаш, антивирус дастурини ва скайнер холатини тўғри созлаш, дастурни тўғри қўллаш олиш ва хоқозо. Афсуски кўп компютер эгалари антивирус дастурларидан тўғри фойдаланиш, антивирус базасини янгилаш(алмаштириш) кўникмалари шаклланмагани учун вируслардан қочиб кутила олмайдилар.

Почта серверлари учун Антивируслар.

Электрон почталар орқали тарқалаётган вируслар энг долзарб муаммолардан бирига айланиб бормоқда. Кўплаб компаниялар почта серверларини химояловчи махсус антивирус дастурларини таклиф қилмоқдалар. Бундай антивируслар маълумотлар оқимини почта серверидан ўтаётган вақтнинг ўзидаёқ тахлил қилади ва йиғилган файлларда зарарланганлари учраса уни ўтказишга йўл қўймайди. Яна бошқа бир йўли эса электрон почта серверига боғланган вақтнинг ўзида одатдаги антивируслар файлларни текширувдан ўтказишга мосланиши.

Почта серверлари SMTP ва POP3 антивирусли химоя бирмунча самарали фойдаланувчининг компьютер химоясидир. Қоидага биноан сервер антивирусларини созлаш, ўрнатиш, базани Интернетдан янгилаш ишларини хатосиз, бекаму кўст амалга ошириш малакали администраторлар зиммасида бўлади. Фойдаланувчилар химояланган почта серверлари SMTP ва POP3 ташвишланмасдан тармоқ каналларида ишлашлари мумкин, чунки уларга маълумотлар вируслардан тозаланган холда ўтказилади.

Зарарланган хатларни жўнатиш, қабул қилиш почта серверининг ўзига ва антивирус дастурини созлашига боғлиқ бўлади. Масалан, жўнатувчи хабарни зарарланган файлда юборса, SMTP химояланган почта сервери уни жўнатишни инкор қилади ва почта дастури экранга огохлантирувчи хабарни кўрсатади.

POP3 химояланган почта сервери ишлатилаётган бўлса, кимдир сизнинг почта адресингизга зарарланган архив файлни жўнатса, унинг ўрнига вирус топилгани хақидаги хабарнинг ўзигина почтадан ўтказилади.

Microsoft Windows оммавий ва доим ривожланишда бўлишига қарамай кўплаб Интернет серверлари Linux, FreeBSD операцион системалари ва UNIX аналогик системаларида бошқарувида ишламоқда. Linuxнинг асосий афзаллиги-жуда кам маблағда ташкил этилишидир. Хар бир фойдаланувчи Интернет орқали Linux дистрибутиларини юклаши ва ихтиёрий сондаги компьютерларда уни ўрнатиш мумкин. Дистрибут таркибида Интернет узелини яратиш учун барча воситалар етарлидир, шу жумладан электрон почта серверларини ҳам ташкил этиш мумкин.

Linux афзалликларидан яна, операцион система очиклик, чиқиш матнларга имкон бериш, кўплаб мураккаб ҳолатларда хабарлар орқалида дастурчилар томонидан кўмак берилиши, матнли консулларни узоқдан бошқариш мумкинлиги ва бошқалар. Бу ОС га учун бир нечта ўнлаб серияли вируслар яратилгани эса уни юқори даражадаги химоя системасига эгалигидан далолат беради.

Юқоридагилардан келиб чиқиб хулоса қилишимиз мумкинки, хизмат кўрсатган антивирус дастурларининг хар бири ўз камчиликлари ва афзалликларига эгадир. Бизнинг назаримизда ADinf и DrWeb дастурлари тўлақонли, мантиқий тугулланган антивирус системаларидир. Барча дастурлар доим алмашиш, базани янгилаш асосида қурилган. “Диалог-Наука” фирмаси арсеналдаги барча мижозларига (янги ва олдинги) доимий равишда янги тушаётган хабарлар ва ишланмалар хақида ўз Интернет сайтда бериб боради. Ўз мижозларига юқори даражали сервис хизматлари, сайтдан ихтиёрий дастурларни бериши, бепул (шартли бепул) имкониятлари билан бошқа фирмалардан фарқланиб туради. Вирусларни топиш бўйича энг замонавий механизм AVP дастурига хосдир. Бу «Лаборатория Касперского»да яратилган махсулот хисобланади. Унинг энг афзаллиги макровирусларга қарши ишончли ҳаракат қила олиши ва уларни даволашидир.

Интернетда хавфсизлик чоралари.

Компьютерни парол билан химоялаш.

Бегона шахслардан компьютерни химоялашнинг энг содда йўли парол билан химоялашдир. Қачонки тўғри парол кетма-кетлиги терилгандан сўнг компьютер

фойдаланувчига ишлаш учун рухсат беради. Бунинг учун куйидаги Web сайтларни топинг.

- Posum LLC(<http://posum.com>) дастурий химоя бўлиб, бир нечта иловаларни ишга туширишга, тўғри парол киритилмагунча компьютер очилмаслигига имкон беради.
- Omniquat (<http://www.omniquat.com>) компьютернинг бир қанча функцияларини блокировка қилиш ёки компьютернинг актив параметрларини кўринмаслик ишларини Desktop Surveillance дастурида таклиф этади.
- Шу жумладан <http://www.cyberenet.net/~ryan>, сайтига мурожаат қилиб компьютернинг ишга юкланишдаги химояларини бажариш учун Claps97 дастуридан нусха олиш мумкин.

Каттик дискда файлларни яшириш.

Энг яхши химоя усулларида бири ахборотларни шифрока қилишдир. Лекин хар бир нарсанинг ютуқлари бўлганидек муаммолари ҳам мавжуд бўлади. Шу жумладан шифровка ишларини ҳам. Шифровкада бир муаммо-у кимдир ниманидир яширса у ҳақида сигнал мавжуд бўлади. Хеч бир шифровка усули 100 фоиз ишончли эмас чунки кимдир паролни топиши, шифрни бузиши мумкин. Сиз бунинг учун айёр усулни бажаришга ҳаракат қилишингиз мумкин: ўзингиз учун зарур файлларни яширинг. Бунинг учун **RSE Software** (<http://www.pc-magic.com>) сайтига кириш ва **Magic Folders** ёки **Encrypted Magic Folders** дастурларни компьютерингизга олинг. Хар иккала дастур ҳам бутун каталогларни кўринмас ҳолатга ўтказишга имкон яратади, бу эса ахборот ўғрисини бу каталоглар мавжудлигини билмаслик ҳолатини ўрнатади. Encrypted Magic Folders дастури файлларни яширади ва шифрлайди, агар бирор кимса яширинган каталогни топса ҳам ундаги файлларни нусха олиши, уларни кўриши тўғри паролсиз бажара олмайди.

Shetef Solutions (<http://www.shetef.com>) аналогик дастурни таклиф этиб, Win-Secure-In дастурида папкаларни яшириш ва шифрлаш имкони бўлиб, ундан ташқари сизнинг компьютерингизга тўғри паролсиз кириш имконини чегаралайди.

Ўз компьютерингизни қандай химоялаш мумкин.

Сўнгги вақтларда фойдаланувчининг паролини ва компьютерни бузиш воқеалари кўпайиб бормоқда. Асосий хужум Microsoft фирмасининг операцион системалари (Windows 95/98 ва Windows NT)га бўлмоқда. Афсуски Microsoft фирмаси фойдаланувчиларнинг хавфсизлигини таъминлай олмаяпти. Windows кўплаб хатоликлар бўлиб, улардан хакер(ахборот ўғриси, бузғунчи)лар унумли фойдаланишмоқда.

Бузғунчиларнинг асосий мақсади компьютерга “жертвў” дастурлари қўйиб юбориб, у орқали керакли ахборотларни тўплаши, паролларини бузиши, Интернетга кириш чегараларини бузишдир.

Бундай “жертвў” зарарли дастурларни фойдаланувчилар қандай қўйиб юбориши мумкин? Бузғунчи электрон почта орқали потенциал равишда «троянские» дастурлари мавжуд бўлган файллар оқимини жўнатади. «троянские» дастурини фойдаланувчи ўзининг компютерида очади, бу эса бузғунчига ўша компьютернинг барча «эшик»ларини очишга имкон беради.

Интернетда бепул сайтлар бўлиб, фойдаланувчи уларга қизиқиш билан кириб кўради. Бу эса бузғунчига янги провайдернинг модем номерини тестдан ўтказиш учун имкон беради.

Сайтни оловчи сайтни ишга юклашга ҳаракат қилади. Бу файл ишга юкланаётганда компьютер вирус билан зарарланади, бу эса компьютердаги паролларни йиғиш, зарур ахборотларни олиш, кейинчалик бузғунчини бу компьютерга кириш имкониятларини яратади.

Бундай бузғунчиларни қандай тўхтатиш, сақланиш мумкин? Биринчидан сизга бирор бир нарсани бепул таклиф қилинса эҳтиёткорлик чораларини кўриш. Иккинчидан сизга таклиф этилаётган файллар вируслар билан таъминланмаганми! Агар сиз тармоқдан

файлни кўчирган бўлсангиз сўнгги версиядаги антивирус дастури текширувидан ўтказиш чораларини бажаришингиз.

Яна бир усули тармоқдаги малакасиз, ишонувчан фойдаланувчидан номни ва паролни олишга қаратилган. Шундан сўнг бузғунчи провайдерга техник хизмат кўрсатилиши ҳақида хат йўллайди. Хатда ўзининг номи ва пароли ҳақида кўрсатма ва талабларни жўнатилишини баён этади. Бу иш турли йўллар билан регистрация қилиниш, маълумотларни текшириш, таққослаш мақсадидаги баҳоналар бўлиши мумкин.

Ёдда тутинки ҳеч қайси провайдер ўзининг фойдаланувчиларига батафсил маълумотлар бермайди!

Сизга кимдир тармоқда ишлашингизга халақит бериш мақсадида бўлувчилар бўлиши мумкин. Windows TSP/IP протоколи реализациясида хатоликларга йўл қўйиши мумкин, яъни Интернет тармоғига уланишни тўхтатиши, компьютерни «осилиб» қолиши ҳолатлари юз беради. Бундай эффектларни «nuke» дастурлари дейилади. Бундай хужумларни NukeNabber дастурлари ёрдами билан қайтаришингиз ва «nuke» дастурларидан химояланишингиз мумкин. Бу дастурни <http://www.dynamicsol.com/puppet/nukenabber.html> сайтдан топишингиз мумкин.

Ундан ташқари турли хужумлардан химояланиш учун ўзингизга «троянский» вирусларини текширувчи керакли дастурларни ўрнатинг. Бу ишни The Cleaner дастури уудалай олади. Уни эса <http://dynamicsol.com/moosoft> сайтдан олишингиз мумкин. Уни бошқа антивирус дастурлари билан биргаликда ҳам қўллаш мумкин. Антивирус дастурлари компьютерни тўла химоя қила олмайди, лекин бир қанча муаммоларни ҳал этади. Ундан ташқари антивирус дастурининг базаси домимий янгиси билан таъминланиб туриши зарур. Сиз тармоқ орқали янги вирусни ўтказиб олсангиз, автоматик ҳолда антивирус дастури уни танийди ва даволайди.

Кераксиз бўлган тармоқ протоколларини ўчириш зарур. Агар сизнинг компьютерингиз Интернетга модем билан ва ҳеч қандан локал тармоқ мавжуд бўлмаса, «Панел управление/Сет»даги ортикча TCP/IP протоколларини ўчиришингиз, фақат «Адаптер удаленного доступа» ва «TCP/IP» қолиши етарлидир. Шу жумладан ҳамкорликда ишлаётган принтер ва дискларни «Доступ к файлам и принтерам» бўлимадан флажокни олиб ташлаш керак. Тармоқда уланишда дискда кириш паролни сақламанг, балки хар сафар тармоққа уланаётганда эринмасдан паролни киритинг, бу эса кўнгилнингизни хотиржам қилади.

Ахборотларни Интернет орқали узатиш.

Компьютерлар дунёсида ахборотларни уч хил даражадаги параметрлар билан тавсифланади: кўлами(подлинностью), конфиденциальности ва қиймати.

Ўрнатилган подлинности сервердан регистрациядан ўтганингизда сизлигингизни ҳисобга олади ва кафолатлайди. Бошқа томондан сиз тушишни хоҳлаган сайт айнан ўша сайт эканлигини кафолатлайди.

Ўрнатилган подлинности жуда муҳимдир. Агар жинойтчилар сизнинг кредит картчангизни олиб ундан фойдалансалар, коммерческий сайтларда улар регистрациядан ўтадилар. Бундай ҳолатларда жинойтчилар қалбаки сайтлар ташкил этадилар ва Интернетдаги фойдаланувчиларнинг пулларини осонлик билан ўзлаштирадилар.

Ўрнатилган подлинности ёмон ишланган бўлиб, аксарият Web серверлар аутентификацияни умуман талаб этмайдилар, балки улар оддийгина киришга руҳсат берадилар. Серверга кириш учун барча Web серверлар содда химоя паролни: Login (ном)ни ва паролни киритишни қўллайди.

Биринчи марта HotWired га мурожаат қилганингизда Login ва паролни ёзишингизни, сизнинг электрон почтангизни сўрайди. Бундан сўнг автоматик тарзда электрон почта яратилади, унда унга киришга руҳсат берувчи номер мавжуд бўлади. Бу номер системага мурожат бўлгандан керак бўлади. Айримлар бошқа номни, бошқа электрон почта адреслари орқали мурожаат қилмасликни эслатади. Бу эса албатта етарли

эмас. Танитиш, паролларнинг схемалари хакерларга маълумдир. Сиз мурожаат қилган сайтлар ҳақиқатдан ҳам яхши жойлар эканлигини қандай билиш мумкин.

Конфиденциальности ахборотнинг йўл вақтида ва адресда ахборотларни химоялаш тушунилади. Интернет орқали юборилаётган ихтиёрий ахборот бирор кимса ёки хакер томонидан кўрилиши мумкин.

Целостностью маълумотлар оқимини аниқ сақлаш, адресларда бирор ўзгариш содир этилмаслиги, тасодифларга учрамаслигига айтилади. Конфиденциальности ҳолати каби интернет ҳеч қандай воситасиз маълумотларни абсолют бутунлигини таъминламайди.

Айрим браузерлар (масалан, Netscape Navigator) ишга тушаётган вақтда экранда бирор файлни вирус билан таъминлангани ҳақида огохлантириш хабари пайдо бўлади.

Шифрлаш.

Интернетдаги маълумотларни химоя қилиш муаммоларни ҳал этиш-бу шифрларни кўллашдир.

Маълумотларни химоялаш.

«Ахборот ҳавфсизлиги» тушунчаси кенг маънода шахс, жамият ва давлатнинг мос ҳолдаги манфаатларини ҳавфсизлиги ҳолатини аниқлайди. Умуман олганда, ахборот ҳавфсизлиги тушунчаси ахборот алмашинуви жараёнида иштирок этувчи субъектларга табиий ёки субъектив характерга эга бўлган тасодифий ёки атайин зарар етказувчи таъсирлардан химояланиш чора-тадбирларини ўз ичига олади.

Ахборот ҳавфсизлигини таъминловчи тадбирлар мажмуаси ахборот химояси дейилади.

Ахборот ҳавфсизлигига методологик нуқтаи-назардан қаралганда у ахборот тизимларидан фойдаланиш жараёнига боғлиқ бўлган ахборот алмашинув муносабатларида иштирок этувчи субъектларни ва бу субъектлар мафаатини аниқлашдан бошланади. Шунинг учун ҳам ахборот ҳавфсизлиги муаммоларига аниқлик киритилаётганда, субъектларнинг турли гуруҳларига қараб турлича талқин қилинади. Масалан, давлат ташкилотлари ва айрим корхоналар учун махфий ахборотлар химояси, яъни мавжуд ахборот тизимига рухсатсиз киришни назорат қилиш биринчи галдаги вазифа ҳисобланади. Ўқув жараёни билан боғлиқ бўлган, масалан, таълим тизимида эса асосий эътибор ахборот тизимига кирувчи техник воситаларнинг бир меъёрда ва беътиним ишлашини таъминлаш асосий вазифа ҳисобланади.

Компьютер ҳавфсизлиги ахборот ҳавфсизлиги тушунчасига қараганда тор маънони англатади. Компьютер ахборот тизимининг битта таркибий қисми бўлиб унинг ҳавфсизлиги компьютер таркибига кирувчи элементлар мажмуасига боғлиқ бўлади.

Ахборот ҳавфсизлиги фақатгина компьютерга боғлиқ бўлмай, балки уни бир маромда ишлашига таъсир этувчи инфраструктурасига ҳам боғлиқ. Масалан, электр куввати ва ундаги ўзгаришларга, хонадаги иссиқлик манбааларига, совутгичларга, коммуникация воситаларига, шунингдек компьютерларга хизмат қилувчи шахсларга ҳам боғлиқ.

Ҳозирда замонавий янги технологияларсиз ҳеч бир соҳани тасаввур қилиш мумкин эмас. Кўплаб критик ахборотлар автоматлаштирилган системаларда қайта ишланади. Бу эса жамиятдаги соҳаларни ютуқларининг энг асосий омилларидан бири бўлиб қолмоқда. Ахборотларнинг кўламининг катталиги, уларнинг қай даражада кадр-қимматлиги, ишонарли сақланиши каби факторлари кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради. Айниқса жуда катта аҳамиятга эга, қимматли ахборотларни емирилиши, ўзагалар томонидан ўзлаштирилиши ҳозирда энг глобал муаммолардан бири саналади. Дунёнинг барча давлатлари, Интернет провайдерлари, фирмалар ўзининг ахборотларнинг ҳавфсизлик тизимига эга. Қуйида улардан бири **StrongDisk Server** ҳавфсизлик тизими ҳақида қисқача тўхталиб ўтамиз.

StrongDisk Server тизими кўпфойдаланувчи, бир вақтда оралик масофадаги ишчи станциялар учун яратилган мукамал ахборотлар хавфсизлиги тизимидир.

StrongDisk Server қуйидаги имкониятларни очиб беради:

- Сервердаги ҳар бир ҳужжатни ва маълумотлар базасини химоялайди. Масалан, бухгалтерия иш ҳужжатларини, электрон почта хизматларини, алоҳида персонал маълумотларни ва ҳаказо;
- Маълумотларни хавфсиз ташиш учун химояланган архивларни яратиш;
- Оддий телефон ёки уяли телефон орқали серверга келаётган бегона ахборотларни ўша вақтнинг ўзидаёқ йўқ қилиш;
- Агар сервер изоляцияланган жойга жойлашган бўлса, химояли ахборотларни масофадан бошқариш;
- Аудит журнали ёрдамида фойдаланувчига химояли ахборотни масофадан назорат қилиш руҳсати;
- Химояли ахборотга боғлиқ ҳолдаги турли хилдаги катта спектрдаги топшириқларни серверда ҳал этиш;

Ишлаш принциплари.

Худди оддий мантиқий диск сингари операцион система химояли диск яратади. Асосий фарқи шундаки барча ахборотлар дискка ёзилишдан олдин кодланади яъни шифровка қилинади ўқилишда эса улар расшифровка қилинади. Мавжуд химояланган диск одатдагидек файлда номга ва кенгайтмага эга ҳолда жойлашади. Химояланган ахборотга мурожаат этиш учун яъни унга кириш учун химоя дискини ишга тушуриш зарур. Бунинг учун эса паролни ва ички калитни ишлатиш керак бўлади. (бирдан бир ягона йўли шу) Химояли дисксиз, паролсиз ва ички калитсиз ҳеч қайси дастурчи бу химояланган ахборотга кира олмайди.

StrongDisk Server асосий имкониятлари.

Текширилган ва ишонли кодлаштириш алгоритми билан калит узунлиги 448 битгача (AES, Blowfish, tripleDES, CAST-128, Safer)

Амалий равишда ихтиёрий катта қўламдаги ахборотларни сбойсиз ва юқори сифат даражасида ишлаш олий қобилияти. Химояли дискнинг максимал ҳажми 512 Gb.

- Сервердан локал тармоқдаги компьютерни ёки Интернетдаги ихтиёрий компьютерни химояли дискини улаш, узиш ва йўқотиш тизимига эга. Сервер изоляцияланган жойда жойлашган бўлса ҳам.
- Тизим экстрен ҳолатда уяли алоқа ёки оддий телефон орқали келаётган сигналларни ёпади ва йўқотади. Бу амал «Смерч» номини олган.
- «Красная кнопка» функцияси реледа ишланган ахборотларни лахзанинг ўзидаёқ йўқотишни таъминлайди. Яшиққа кириш ва чиқишдаги эҳтиётсизлик чораларини белгилайди.
- Ташқи калитни қўллаб-қувватлаши ва смарт-карт қийматини оширилиши химоя тизимини ортишига ва тизимда қулай ишлашга шароит яратилиши. Ташқи калитга ёки смарт-картга ёзилаётган кодни тахминий сонлар ренератори тарзида кетиши.
- Сўнги фойдаланувчининг изсизлиги. Фойдаланувчи маълумотлар билан ишлаётганда кодларни тўғридан-тўғри сервер лентага ёзилиши. Барча кодланган калитларнинг серверда жойлашиши. Оддий фойдаланувчи ишлаётган маълумотлар ўрнида кодланаётганини билмаслиги мумкин.
- Аудитнинг химояланган журнали ким ва қачон химояланган дискка мурожаат қилгани ва фойдаланганини назорат қилади.
- Махсус аниқ воситалар операцион системага алоқасиз ахборотлар. Уларга қуйидагилар киради.
 - тикланиши мумкин бўлмаган, қайта ишланган файллар воситаси, махсус техник воситаларни қўлланиши;
 - Виртуел утилити дискдаги ишлатилган жами бўш жойларни назорати;

- кўчирилган файлларни ишлатилиши(сарфланиши).
 - вақтинчалик файлларни химояланган TEMP папкасида сақланиши;
 - Ишлашнинг махсус эслатмалари. Барча зарур махсус иловалар химояланган дискда бўлиб, уни қўлашда оддий диск каби фойдаланишни, фойдаланувчи диск билан ишлашда ўзининг усуллари қўлаши маън этилади.
- Қўлланувчи операцион системалар: Windows NT/2000/XP, Windows .NET Server

